
"RANGLAR SEHRI" NOMLI IJODIY ISHLAR KO'RGAZMASI BO'LIB O'TDI

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2023 yil 22 dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida barchamiz uchun ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan ilm-fan, ta'lim va tarbiya, ma'naviy-ma'rifiy sohalardagi dolzarb vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalar ijrosini ta'minlash, shuningdek "Madaniyat va ma'rifat oyi" doirasida bugun Toshloq tumanidagi 22-sonli Bolalar musiqa va san'at mакtabida tuman hokimligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi, Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi bilan hamkorlikda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy san'at turlarini keng targ'ibot qilish, shuningdek tasviriy va amaliy san'at turlarini rivojlantirish maqsadida tadbir tashkil etildi.

Tadbirda tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev va tuman IIB boshlig'i Avazbek Kattabekovlar ishtirot etdi. Unda qatnashgan sektor rahbarlari har bir oilaga, har bir maskanga yangi nur, yangi ziyo kirib borishi, odamlarimizning dunyoqarashi o'zgarishi, ayniqsa o'sib kelayotgan yoshlarning yurt taqdiriga dahldorlik tuyg'usini uyg'onishi har birimizning asosiy ishimizga aylanishi lozim ekanligini ta'kidlab o'tdilar.

Tadbir yakunida tasviriy va amaliy san'at turlari bo'yicha o'zining ijod namunalari bilan ishtirot etgan o'quvchi va o'qituvchilar tashakkurnoma va esdalik sovg'alar bilan taqdirlandilar.

2024-05-04 13:54:37